

BANK TIZIMI VA UNING PAYDO BO'LISHI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Bank ishi" kafedrası
o'qituvchisi*

Sindarov Sh. K

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Imomnazarova Dildora Mansurjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarning kelib chiqqishi va ularning vazifalari, O'zbekistonda banklar faoliyatini rivojlanish bosqichlari, Markaziy bankning vazifalari va bank tizimini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy (emissiya) banki, tijorat banki, veksel hisobi, «Banca», «Bancherii», «Banco rotto».

Kirish. «Bank» so'zi italyancha «Banca» so'zidan olingan bo'lib, «stol», aniqrog'i «pulli stol» degan ma'noni anglatadi. XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «Bancherii» deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o'z ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco rotto», ya'ni «bankrot» deb atashgan. Bugungi kunda bizga ma'lum bulgan «bankrot» so'zi xam italyancha «Banca rotto» so'zidan olingan.¹ Bank - asosiy faoliyati pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish, shuningdek hisob-kitoblarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan moliya muassasasi. Iqtisodiy nuqtai nazardan banklar pul bozorida erkin naqd pulga ega bo'lganlar va qo'shimcha resurslarga muhtoj bo'lganlar o'rtasida vositachi sifatida ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi bank tizimi mustaqillikdan avvalgi davrdagi tizimdan tubdan farq qiladi. Ma'lumki, o'sha vaqtlarda bank tizimining negizini quyidagilar tashkil etgan:

- SSSR Davlat banki;
- Qurilish banki;
- Davlat mehnat jamg'arma kassalari.

Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida omonatlarni (depozitlarni) qabul qilish, kreditlar ajratish hamda mijozlarga kredit-hisob xizmatlarini ko'rsatish belgilanadi. Shuningdek, banklar qimmatli qog'ozlarni saqlash, ularni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini ijro etish va seyflarni ijaraga berish kabi pullik xizmat turlarini ham amalga oshiradi. Hozirgi kunda bajaradigan iqtisodiy vazifalariga ko'ra banklarning quyidagi asosiy turlari mavjud: Markaziy (emissiya) banki va tijorat banklari.

Markaziy bank – mamlakatning butun kredit tizimini nazorat ostiga oladi, davlatning pul-kredit siyosatini yuritadi, naqd pullar va qimmatli qog'ozlar

emissiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, u oltin-valyuta zaxiralarini saqlash hamda davlat va tijorat banklarini kreditlash bilan shug'ullanadi.

Tijorat banklari – o'z navbatida universal va ixtisoslashgan turlarga bo'linadi. Ixtisoslashgan banklar sirasiga investitsiya, jamg'arma, kooperativ va maxsus banklar kiradi. Tijorat banki universal muassasa sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga turli-tuman xizmatlar (depozitlar jalb qilish, veksellar hisobi, kreditlash, qimmatli qog'ozlar savdosi) ko'rsatadi. Ushbu banklar butun bank va kredit tizimining o'zagini tashkil qiladi. Mulkchilik shakli va turlariga ko'ra banklar quyidagicha tasniflanadi: davlat banki, aralash bank (davlat ishtirokidagi), davlatlararo, xalqaro, chet el sarmoyasi ishtirokidagi banklar, aksiyadorlik, xususiy, kooperativ, kommunal va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish strategiyasi iqtisodiyotni bosqichma-bosqich bozor sharoitlariga o'tkazish dasturi bilan uyg'unlikda amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynidagi islohotlar natijasida milliy bank tizimining ikki bosqichli strukturasi (yuqori bo'g'ida — Markaziy bank, quyi bo'g'ida — tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu esa banklar sonining ortishiga va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarining kengayishiga xizmat qildi.

Asosiy qism. O'zbekiston so'nggi yillarga savdo va narxlarini liberalizatsiya qilish bo'yicha bir qator samarali islohotlarni amalga oshirdi. Lekin shunga qaramasdan mahsuldorlik, xususiy sektor tomonidan o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish davom etishi uchun qo'shimcha islohotlar zarur. Asosiy e'tibor bozorning zaif omillari, savdo va tranzit xarajatlari, monopol korxonalar, tartibga solish muhiti hamda qishloq xo'jaligi va butun iqtisodiyotda bozorni rag'batlantirish va barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilishi kerak, deya qayd etadi Jahon banki mutaxassislari. Kambag'allik chegarasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda aholining 17 % qismi ushbu toifa tarkibiga kirgan. Ijtimoiy yordam miqdori va manziling oshib borishi ushbu qatlamdagi aholi sonining kamayishiga hissa qo'shadi

O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy printsiplarga aylana bordi.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zahirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

Xulosa. Bank - asosiy faoliyati pul mablag'larini jalb qilish hamda joylashtirish, xususan hisob-kitoblarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan moliya muassasasi. Iqtisodiy nuqtai nazardan banklar pul bozorida erkin naqd pulga ega bo'lganlar va qo'shimcha resurslarga muhtoj bo'lganlar o'rtasida vositachi sifatida ishlaydi. Bank ishining asosiy yo'nalishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi. Bank qimmatbaho qog'ozlarni saqlash, saqlashga o'tkazilgan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijaraga berish kabi pulli xizmatlar ham ko'rsatadi. O'zbekiston so'nggi yillarga savdo va narxlarni liberalizatsiya qilish bo'yicha bir qator samarali islohotlarni amalga oshirdi. Lekin bunga qaramasdan mahsuldorlik, xususi sektor tomonidan o'sish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish davom etishi uchun qo'shimcha islohotlar zarur. Asosiy e'tibor bozorning zaif omillari, savdo va tranzit xarajatlari, monopol korxonalar, tartibga solish muhiti va qishloq xo'jaligi hamda butun iqtisodiyotda bozorni rag'batlantirish uchun barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilishi kerak, deya qayd etadi Jahon banki mutaxassislari. Banklarning moliyaviy mablag'larini vujudga kelish manbalari va ularning joylashtirilishi buxgalteriya balansida aks ettiriladi. Bankning balansi aktiv va passiv qismdan tashkil topgan ikki tomonning o'zaro tengligidir. Bank balansining passivida moliyaviy mablag'larning vujudga kelish manbalari, uning aktivida bo'lsa moliyaviy resurslarning tegishli maqsadlarga joylashtirilishi aks ettiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF -5992 sonli Farmoni,12.05.2020 yil
2. Абдуллаев Ё., Қоралиев Т., Тошмуродов Ш., Абдуллаева С. Банк иши. Ўқув қўлланма-Т
3. То'xtasinov B., Qodirov B.
Tijorat banklari faoliyati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Jumaniyozov X.X.
Bank menejmenti. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
5. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. I nashri. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. TMI. -T.: "Iqtisod-Moliya".
6. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

